



TILSHUNOSLIKDA ME'YOR TUSHUNCHASI VA O'ZBEK TILINI ME'YORLASHTIRISH MASALASINING AYRIM MUAMMOLARI

Esonturdiyeva Dilnoza Yusupovna

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Kishilik jamiyati o'zining ko'p asrlik taraqqiyotining barcha davrlarida ham turli katta-kichik hududiy bo'linmalarda, taraqqiyotning turli bosqichlarida, turli madaniyatlarda istiqomat qiluvchi aholi o'zaro aloqaga kirishish uchun yagona me'yorlashtirilgan adabiy tilga ehtiyoj sezgan Bugungi kunda esa ona tilimizning nufuzini oshirishda me'yorlashtirishning ayrim masalalari, uni hal etish muammosi muhim ahamiyatga ega. Quyida ayni o'sha me'yor va me'yorlashtirish xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *me'yor, me'yorlashtirish, variantdorlik, adabiy shakl.*

Me'yor bu jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir. Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Til me'yorini o'rganish bo'yicha mavjud ishlarni kuzatish bu muammolarni o'rganish bu borada to'rt asosiy markaz mavjudligini ko'rsatdi:

Praga tilshunoslik maktabi namoyandalari til me'yorini, adabiy tilning asosiy vazifalarini adabiy til me'yori kodifikatsiyasining amaliy masalalari bilan birga uzviy holda tahlil qildilar. Til me'yori va adabiy tilni me'yorlash ishida B. Gavranek, V. Matezius, A. Edlichka, V. Barnet, E.Vaxek kabilarning xizmatlari diqqatga molikdir.

E.Koseriuning ilmiy nazariyalari. E.Koseriu me'yorni ijtimoiy nuqtai nazardan ob'ektiv, tartibga solingan va tanlangan hodisa deb tushunsa, kodifikatsiyani - sub'ektiv, faqat til nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lgan hodisa, kategoriyalar deb tushunadi. Uningcha, til sistemasi va strukturasi tilning hamma hodisalarini o'z ichiga qamrab ololmaydi. Har bir til ifoda tomonidan ham, ma'no tomonidan ham o'zining variantdorlik xususiyatlariga ega. E. Koseriu tildagi variantdorlik tushunchasi sistemaning xususiyatidan emas, balki me'yorning o'z mohiyatidan kelib chiqqan hodisa ekanligini isbotlaydi va nutqda mavjud bo'lgan turli xil chekinishlarni ham me'yor belgilaydi, deb hisoblaydi.

Amerika, ingliz va nemis tilshunoslarining ilmiy qarashlari. Ular me'yorning tabiati, xususiyatlarini lingvistik va sotsiolingvistik ishlarida yoritdilar. Me'yorni umumjamoat tomonidan qo'llaniladigan va jamiyat tomonidan to'g'ri deb qabul qilingan til shakllari deb tushundilar.



XX asr rus tilshunosligidagi ilmiy-nazariy qarashlarni quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

- Me'yorni tilning sistem-struktur imkoniyatlarining o'rganilishi bilan bog'liq holda tahlil qilish.
- Me'yorni adabiy til ijtimoiy vazifasining kengayishi va uning funktsional rang-barangligining o'sishi bilan bog'liq holda o'rganish
- Me'yorni adabiy tilning ba'zi sotsiologik jihatlari bilan bog'liq holda kuzatish.
- Me'yorni nutq madaniyati masalalari bilan bog'liq holda o'rganish.
- Me'yorni tilning psixologik va kommunikativ jihatlari bilan bog'lagan holda tahlil qilish.

Shuningdek, til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlari tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin emas. Anglashiladiki, til me'yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir. Tadqiqotchilarning aytishicha rasmiy muomalada tildan foydalanish tilning me'yorlashuvini, adabiy tilning shakllanishini tezlashtirgan. Shuningdek davlat olib borgan ijtimoiy siyosatning ham til rivoji va me'yorlashuviga ta'siri katta. Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiy bo'lgan bir qolipga keltirish tilshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi. Me'yor masalalari shu sohaning o'rganish obyekti bo'lib qoladi. Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy adabiyotning o'rnini ham alohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Bu tilning boyishi va me'yorlashuviga sabab bo'ladi. Til elementlarini me'yorlashtirish jarayonida eskilik va yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermoqda. Ma'lum muddat ular teng darajada parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin.

Afsuski bugungi kunda o'zbek tilini me'yorlashtirish masalasi bir muncha oqsamoqda. Bu ayniqsa, turli tashkilot va markazlar, tadbirkorlik subyektlari, maishiy xizmat ko'rsatish markazlariga nom tanlash va ularni reklama qilish sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bizda bugun ham dorixona, bozor, do'kon, savdo majmuasi, oshxona, o'quv markazi kabi aynan muqobili mavjud so'zlar o'rnida apteka, market, supermarket, mini market, butik, education center, magazin kabi nomlar va e'lonlarni katta qilib osib qo'ishni urfga aylandi. Bu bilan go'yoki ko'proq xaridorlarni jalb qilishni maqsad qilishgan, aslida esa Real education, study, Sheikh boutique, Channel, Osh centre, Shashlik city, Elevate, Indenim kabi talaffuz qilish ham, eslab qolish ham qiyin so'zlar o'rnida, hammaga tanish, esda qolarli o'zbekcha so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Achinarlisi, milliy madaniyatimiz va tilimizning jozibasini



tarannum etib, xorijlik mehmonlarda ham o'ziga xos taassurot qoldirishi, tilimizga qiziqishi va hurmatini oshirishi mumkin bo'lgan yorliqlar, e'lonlar o'zbek tili nufuzini oshirishga xizmat qilishi o'rniga, butunlay boshqa yoqqa ketmoqda. Yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar esa o'zini hech shubhasiz O'zbekistonga emas, bironta Yevropa mamlakatiga kelib qolgandek his qiladigan manzaraga kiryapti shaharlarimiz. Bu masala yuzasidan siyosiy nazorat o'rnatish bilan tartibga keltirish lozim, nazarimda.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, tilshunoslikda me'yor tushunchasi va me'yorashtirish masalasi eng dolzarb masalalardan biridir. Adabiy til me'yorashtirilmagan ekan u o'sha tilda gapiruvchi jamiyat, xalq vakillari uchun asosiy aloqa almashish vositasiga aylana olmaydi, bu tilda badiiy va ilmiy asarlar yozilmaydi, ommaviy axborot vositalari tili sifatida qo'llanilmaydi, o'qitish ishlari, ta'lim tizimi, darsliklar uchun boshqa bir til tanlanishiga to'g'ri keladi. Bir so'z bilan aytganda, avvaliga tor doiralarda, kichik-kichik hududlardagina so'zlashuv quroli vazifasini bajarish bilangina cheklanib, oxir-oqibat zavolga yuz tutadi. Bu esa me'yorashtirishning tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri ekanining yaqqol isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov X., Shodmonov E., Rafiev A. O'zbek tili. - Toshkent.: O'qituvchi, 1988.
2. Nazarov K., Sayfullaev R., Ubaydullaeva M. O'zbek tili (Ixtisoslik grammatikasi). - Toshkent.: O'qituvchi, 1993.
3. Madvaliev A., Mahmudov N., va b. O'zbek tilida ish yuritish (munshoot). - Toshkent: O'zbek Milliy ensiklopediyasi.; 1990.
4. M.T.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Darslik. "Yangi asr avlodi" bosmaxonasi. Toshkent.: 2009.
5. Hojiyev A.P. Lingvistik terminlarning qisqacha lug'ati. -T: 2001.

